


I. YALPI HUDUDIIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-martda ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YaHM) hajmi 3140,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 105,5 foizga teng bo'ldi.

2019 yil yanvar-mart oylarida YaHM deflyator indeksi 125,7 foizni tashkil qildi.

Yalpi hududiy mahsulot(YaHM)– milliy hisoblar asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

**2019 yil yanvar-mart oylari uchun YaHMning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari**
(foiz hisobida)



Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, sanoat – 108,8 foiz (20,2 foiz), qurilish – 105,7 foiz (6,1 foiz), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 106,0 foiz (26,5 foiz) va savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 109,3 foiz (7,3 foiz)ni tashkil qildi.

**2019 yil yanvar-mart oylarida viloyat yalpi hududiy
mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi**


	<i>mlrd.so'm</i>		<i>2018 yil yanvar- martga nisbatan foiz hisobida</i>
	<i>2018 yil yanvar-mart</i>	<i>2019 yil yanvar-mart</i>	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	2367,0	3140,3	105,5
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	2270,1	2955,7	105,5
Mahsulotlarga sof soliqlar	96,9	184,6	106,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	2270,1	2955,7	105,5
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	757,1	944,0	104,0
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	557,4	777,7	111,5
sanoat	408,7	597,9	108,8
qurilish	148,7	179,8	105,7
Xizmatlar	954,9	1234,0	105,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	174,4	216,0	109,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	220,8	237,2	100,0
boshqa xizmatlar	559,7	780,8	106,0

2019 yilning yanvar-mart oylarida viloyatning yalpi hududiy mahsulotining o'sish sur'atiga asosiy ta'siri 108,8 foiz– sanoat, 105,7foiz -qurilish tarmoqlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


YaHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 64,1 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to'g'ri keldi, bu ko'rsatkich 2018 yil yanvar-mart oylarida 67,0 foizni tashkil qilgan.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi
yanvar–mart holatiga(jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-mart



2019 yil yanvar-mart



- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat, qurilishni qo'shgan holda
- Xizmatlar

2019 yilning yanvar-mart oylarida YaHM tarkibida Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasining ulushi 31,9 foizni tashkil qildi, bu esa 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan -1,5 punktga kamdir (33,4 foiz), xizmatlar sohasi 41,8 foizni tashkil qildi va -0,2 punktga kamaydi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)ni ulushi 26,3 foizni tashkil qilib, 2018 yil yanvar-mart oylariga nisbatan 1,7 punktga oshdi.

**O‘zbekiston Respublikasining Xorazm viloyati bilan solishtirma
makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari
(2019 yil yanvar-mart)**

	<i>O‘zbekiston Respublikasi</i>		<i>Xorazm viloyati</i>		<i>Respublikadagi ulushi % da</i>	
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>O‘sinh sur‘ati, % da</i>	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>O‘sinh sur‘ati, % da</i>	<i>yanvar- mart 2018 y.</i>	<i>yanvar- mart 2019 y.</i>
Yalpi ichki mahsulot (hududiy) mahsulot	91 097,7	105,3	3 140,3	105,5	3,3	3,4
Sanoat	67421,9	106,8	1824,4	108,8	2,7	2,7
Istemol tovarlari	19214,6	118,3	1037,8	118,9	5,4	5,4
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	20309,1	102,5	1568,6	104,0	7,3	7,7
Investitsiyalar	29885,1	129,9	495,7	90,7	2,4	1,7
Qurilish ishlari	11179,7	105,9	394,9	105,7	3,5	3,5
Chakana tovar aylanishi	32839,4	105,9	1434,6	111,1	4,0	4,4
Xizmatlar, jami	40168,7	111,1	1197,5	112,4	3,0	3,0
Eksport (mln. AQSH. doll)	4 132,7	120,6	35,4	140,0	0,7	0,9
Import	5 273,5	132,9	66,1	2,0 m.	0,8	1,3